



## ARAB TILI STILISTIKASIDA GAP BO'LAKLARINI TUSHIB QOLISHI VA UNING SABALARI

Almardanov Dilmurod

Oriental Universiteti o'qituvchi-stajyori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18722494>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> February 2026

Accepted: 15<sup>th</sup> February 2026

Published: 21<sup>st</sup> February 2026

### KEYWORDS

*Balog'at ilmi, ilmi maoniy, hazf, zikr, stilistika, Abdulqohir Jurjoniy, Qur'oniy uslub, gap bo'laklari, fasohat, majhul nisbat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola arab tili balog'at (stilistika) ilmining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan "ilmi maoniy" doirasida zikr va hazf masalalariga bag'ishlangan. Maqolada gap bo'laklarini tushirib qoldirish (hazf) yoki aksincha, ortiqcha zikr qilishning stilistik sabablari Qur'oni Karim oyatlari va adabiy misollar yordamida tahlil qilingan. Shuningdek, Abdulqohir Jurjoniy kabi ulamolarning hazf san'atiga bergan yuqori baholari, vaqt tig'izligi, ulug'lash, xorlash kabi balog'iy maqsadlar atroflicha yoritilgan. Maqola yakunida zikr va hazfnig matn jozibadorligini ta'minlashdagi ahamiyati yuzasidan xulosalar berilgan.*

Arab tili dunyo tillari orasida o'zining jozibadorligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. Til imkoniyatlari nihoyatda keng bo'lib, shuning uchun ham arab adabiyoti, arab she'riyati yuksak darajada rivojlangan. Arab tili grammatikasi bir qancha fanlarga bo'lib o'rganiladi: sarf, nahv, fiqhul-lug'a, balog'at kabi. Biz bahs qilmoqchi bo'lgan mavzu balog'at (stilistika) ilmiga tegishlidir. Balog'at ilmi ham uch qismga bo'linadi:

- علم البيان ilmi bayon
- المعاني علم ilmi maoniy
- علم البديع ilmi badi'

Zikr va hazf masalalari ilmi maoniy bo'limida o'rganiladi. Zikr – bu biror gap bo'lagini gapda keltirishdir Zayd keldi kabi. Hazf – bu biror gap bo'lagini tushirib qoldirishdir masalan, keldi kabi. Nutqda bir xil so'zlarni qaytaraverish uning qiymatini pasaytiruvchi omillardan deb qaraladi. Shuning uchun takrordan qochish maqsadida ko'pincha gap bo'laklari hazf qilinadi, ya'ni tushurib qoldiriladi.

Abdulqohir Jurjoniy (rohimahulloh) o'zining “Daloilul-e'joz” kitobida hazf haqida shunday deydi:

وهو باب دقيق المسلك لطيف المأخذ عجيب الامر شبيه بالسحر

U (hazf) daqiq (nozik) yo'l, latif asosli, ajib bir sehriga o'xshash bobdir.

Hatto bu borada she'r ham aytilgan:

لولا الحذف و التقدير  
لفهمت النحو الحمير

*Tarjimasi:* Hazf va taqdir (o'rniga so'z qo'yish) bo'lmaganda, nahvni eng bilimsiz odam (so'zma so'z: eshak) ham tushungan bo'lardi.

Aynan hazf ulamolar eng ko'p e'tibor qaratgan bo'lim hisoblanadi. Chunki juda ko'plab nozik ma'nolar hazf orqali ifodalanilishi mumkin. Abdulqodir Jurjoniy aytadi:

فإنك ترى به ترك الذكر، أفصح من الذكر، والصمت عن الإفادة أزيد للإفادة، وتجدك أنطق ما تكون إذا لم تنطق، وأتم ما تكون بيانا إذا لم تبين.

*Tarjimasi:* Agar sen hazfdan to'g'ri foydalansang, uni zikrdan ham fashohatli ekanini, ba'zi o'rinda sukut nutqdan ham ko'p ma'no ifodalashini, nutq qilinmagan so'z nutq qilinganidan a'lo ekanini, bayon qilmasliging bayon qilishingdan komil ekanini ko'rasan.

Zikr va hazfning har ikkalasining o'z o'rnini bo'lib, ularning balog'iy ma'nolari shundan kelib chiqib tahlil qilinadi. Agar tinglovchiga biror ma'noni yetkazish maqsad qilinsa, unda gapning har bir bo'lagini keltirish lozim bo'ladi. Buni asl (to'liq ifodalash) deyiladi.

Masalan, رأيت زيدا امس في المدرسة (men kecha Zaydni madrasada ko'rdim) kabi. Mazkur jumladan biror bir gap bo'lagini tushirsak, yetkazilmoqchi bo'lgan ma'noga ham putur yetadi.

Gapning ma'nosini muayyan bir gap bo'lagisiz ham ifodalash imkoni bo'lsa, o'sha gap bo'lagini tushurib qoldirish mumkin. Masalan:

من جاء؟ (kim keldi?)

زيد. (Zayd.) kabi.

Bu jumlada Zayd keldi deyilmasdan faqat Zayd deyildi, ya'ni kesim hazf qilindi. Chunki o'zidan oldingi so'roq gapdan "kelmoq" fe'li tushunib olinadi.

Gohida bu qoida buzilib, keltirilishi kerak bo'lgan gap bo'lagi tushurib qoldirilishi yoki aksincha tushurilib qoldirilishi kerak bo'lgan gap bo'lagi keltirilishi ham mumkin. Buni asldan (qoidadan) chiqish deyiladi. Juda ko'plab nozik tag ma'nolar shu yo'l orqali ifodalanadi. Quyida ular bilan tanishamiz.

Zikrga undovchi sabablar (aslida tushirib qoldirilishi kerak bo'lgan gap bo'lagining gapda keltirilishi va uning sabablari)

1. Zikr qilinayotgan gap bo'lagini ta'kidlash va uni yanada izohlash uchun. Masalan, ﴿أولئك على هدى من ربهم وأولئك هم المفلحون﴾ "Ana o'shalar Robbilaridan bo'lgan hidoyat uzradirlar va ana o'shalar najot topuvchilardir." (Baqara surasi 5-oyat) Bu oyatda اولئك so'zi ikki marta zikr qilindi. Vaholanki ikkinchi marta keltirilmasa ham bo'lardi. Chunki birinchi اولئك so'zi uni ikkinchi marta qaytarmalikni taqazo qiladi. Yuqorida aytilganidek bundan ta'kidlash va izohlash qasd qilingan.

2. Tinglovchining zehni pastligiga ishora qilish uchun. Masalan:

- زيدا نىما دىدى؟ (Zayd nima dedi?)- degan savolga

- زيدا نىما دىدى (Zayd bunday dedi),- deb Zayd so'zini javobda ham aynan qaytarilgani kabi. Aslida javobda Zayd ismini aytilmasligi kerak edi. Bu yerda tinglovchining zehni uncha yaxshi emasligiga ishora bor.

3. So'zlovchi suhbatni imkoni boricha cho'zish maqsadida keltirilmasa ham bo'ladigan gap bo'lagini gapda zikr qilishi mumkin. Masalan:

قال وما تلك بيمينك يا موسى قال هي عصاي

"Ey Muso, qo'lingdagi nima? Bu asoyimdir..." Bu o'rinda Muso alayhissalom "Qo'lingdagi nima?"- degan savolga "Aso" deb javob bersa ham bo'lardi, lekin Alloh bilan bo'ladigan muddatni cho'zish uchun "Bu" so'zini, ya'ni egani garchi keltirish shart bo'lmasa ham, zikr qildi.

Hazfga va uning o'rinlari

1. Behudalikdan saqlanish uchun ko'pincha ba'zi gap bo'laklari hazf qilinadi. Ya'ni tinglovchiga yuqoridagi gapning siyoqidan anglashilgani uchun o'sha gap bo'lagini zikr qilish foydasiz hisoblanadi. Imom Sakkokiyning fikriga ko'ra bunday holat quyidagi o'rinlarda yuzaga keladi:

a. So'roq gapning javobida. Masalan:

”Hutama“ qandoq narsa ekanini senga nima bildirur? **نار الله الموقدة وما أدراك ما الحطمة.** Allohning shiddatli o'chmas olovidir.” Aslida **هي نار الله** bo'lishi kerak edi.

b. **قال** fe'lidan keyin. Masalan:

”Ular: “Avvalgilarning afsonasidir...” dedilar.” Aslida **القرن أساطير الأولين** bo'lishi kerak edi.

c. Javobi shart o'rnida ot kesimli gap kelganda. Masalan:

”Agar ularning (mollarini) aralashtirib yuborsangiz, bas, birodarlaringiz.” Aslida **فهم اخوانكم** bo'lishi kerak edi.

d. Haqiqatan o'z-o'zidan tushuniladigan, ya'ni uning o'rniga boshqa so'zni qo'yib bo'lmasa, o'sha gap bo'lagi hazf qilinishi mumkin. Masalan:

”G'aybni ham shohidni biluvchi zotdir.” Aslida **الله عالم الغيب والشهادة** bo'lishi kerak edi. Zero Allohdan o'zga hech kim g'aybni bilmaydi. Shunig uchun “Alloh” lafzi jalola hazf qilingan.

2. Vaqt tig'izligi tufayli. Masalan o'ljani poylab turgan ovchiga “Kiyik!” deyilgani kabi. Unga “Qara kiyik chiqdi, tezda o'q uz!”- deguncha fursat o'tib ketadi. Yoki oldidagi chuqurni ko'rmayotgan kishiga “Chuqur!” deyilgani kabi. Unga ham “Ehtiyot bo'l, oldingda chuqur bor!”- deguncha ulgurmay qolishi mumkin.

3. Kerak paytda inkor qila olish uchun. Masalan, bir kishi “Pastkash, baxil!”- deb birovni yomonlasa, keyin o'sha odam “Nega meni haqoratlayapsan?” deganda, inkor qila oladi. Chunki u faqat kesimni aytib, egani ataylab hazf qildi.

4. O'ta ulug'lash uchun. Maslan, “On hazrat bunday dedilar...” kabi. Ya'ni, u shu qadar ulug'ki, uning ismini aytishga men loyiq emasman, deyilmoqchi.

5. O'ta xorlash uchun. Masalan, “Meni yo'ldan urdi” kabi. Ya'ni Shayton meni yo'ldan urdi deyilmasdan, u tilga olishga ham arzimaydi deb, “Shayton” so'zi hazf qilindi.

6. Balog'at ulamolari foilni hazf qilib fe'lni majhul nisbatga o'tkazishni ham hazfdan deb hisoblashgan va bunga ham bir qancha izohlar berishgan. Quyidagi maqsadlarda fe'l majhul nisbatda keltiriladi:

a. Kim qilganligi noma'lum bo'lsa. Masalan, **ضرب زيد** “Zayd urildi” kabi. Bunda kim urganligi noma'lum.

b. O'ziga biror xavf yetishidan qo'rqsa. Ya'ni kim urganligini aytsa, unga zarar yetishi xavfi bor.

c. Foilni o'ylab, unga zarar yetmasligi uchun. Agar aytsa urgan odamga zarar yetishi mumkin bo'lganda.

d. Foilni aytish odobdan bo'lmaganda. Masalan, **تولدت** tug'ildim kabi jumalalarda. Bunda “Onam meni tug'gan”- deb ishlatish xunuk ibora hisoblanadi.

Xulosa qilib aytsak, yuqorida ko'rganimiz kabi zikr va hazf arab balog'atining eng daqiq boblaridan biri hisoblanadi. Hattoki zikr va hazf uchun alohida kitoblar ham yozilgan. Ko'plab chuqur ma'nolarni ifodalashda bu bobning o'rni beqiyos. Uni tushunish uchun arab adabiyotidan ko'plab mutolaa qilish kerak. Shunda bu kabi nozik ma'nolarni anglashda malaka hosil bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'on oyatlari ma'nolarining tarjimasini. T. 2014.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 1-jild. 2000 yil.
3. Sharifov Z. “Balohat fani” (Bayon va bade' ilmlari). Toshkent. Movarounnahr.

2014. B.3.

4. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. Toshkent. 1998.

5. Ziyovuddinova M. Muallaqot. Johiliyat davri adabiyoti. (o'quv qo'llanma).

Toshkent. 1993.

6. 2017. حغني ناصف. دروس البالغة. إسطنبول.



INNOVATIVE  
ACADEMY